

INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI SO'ZLASHUV
FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Taxmina Yunusovna Mukaramxodjayeva

Samarqand Davlat Chet tillar Instituti, Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi

Anotatsiya: *Mazkur maqolada ingliz va o'zbek badiiy asarlarida qo'llanilgan so'zlashuv frazeologizmlarining lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Frazeologizmlarning xalq madaniyati, tarixi va qadriyatlarini aks ettirishdagi roli o'rganilib, ularning badiiy nutqdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, ikki til o'rtasidagi frazeologik birliklarning o'xshash va farqli jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot natijalari tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalari uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *Frazeologik birlik, lingvomadaniy xususiyat, so'zlashuv frazeologizmlari, mifologiya.*

Abstract: *This article analyzes the linguocultural features of conversational phraseological units used in English and Uzbek literary works. It examines their role in reflecting the culture, history, and values of the peoples, as well as highlights their significance in artistic speech. Additionally, a comparative analysis of the similarities and differences of phraseological units in both languages is conducted. The results of this research hold important scientific significance for the fields of linguistics and literary studies.*

Keywords: *phraseological unit, linguocultural feature, conversational phraseological units, mythology.*

Kirish.

Frazeologiyaning tarkibiy qismida so'zlashuv FB lari eng ko'p tarqalgan uslubiy tip bo'lib, bunday FB lar til frazeologik fondining yarmidan ko'prog'ini tashkil qiladi. So'zlashuv uslubi maxsus tayyorgarlik ko'rilmay shakllangan uslub

sistemasisidir. So'zlashuv jarayonida suhbatdoshlar bir-birining savoliga javob berganda tayyorgarlik ko'rmay vaziyatga qarab fikr yuritadi, bunda suhbatdoshlar aktivligi va operativligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Aktivlik va operativlik natijasida til vositalarini iqtisod qilishga intiladilar va natijada so'zlashuv FB lari vujudga keladi.

ADABIYOTLAR TAHLLILI

Frazeologik birliklarning grammatik sathda o'rganilishiga doir dastlabki ishlar XX asrning boshida yuzaga keldi. Jahon tilshunosligida L.P. Smit, A.V. Kunin, A. Makkay, I.V. Arnold, D. Bolinger¹ kabi olimlarining hamda o'zbek tilshunosligida Sh. Rahmatullaev, Ya.D. Pinxasov, A. Shomaqsudov, B. Yo'ldoshev, M. Husainovlar² larning bu sohadagi ishlarini keltirish mumkin. Jumladan, L.P. Smit o'z ishida ingliz frazeologik birliklarining (idiomalarining) semantik strukturasiga umuman e'tibor qaratmaydi, aksincha turg'un frazemalarining grammatik xususiyati va sintaktik munosabatlarini tahlil qilgan bo'lsa, A.V. Kunin ingliz frazeologik birliklarni sistematik tahlilini (birlamchi va ikkilamchi hosil bo'lish yo'llarini) amalga oshirgan. V. Arnold esa frazeologik birliklar strukturasi deganda ularning morfologik xususiyatlarini inobatga olish kerakligini ta'kidlagan.

NATIJA VA MUHOKAMA So'zlashuv frazeologizmlari xalqning madaniyati, tarixi va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim til birliklaridan biridir. Ular ma'lum bir xalqning kundalik hayoti, urf-odatlari va qadriyatlarini ifodalash bilan birga, badiiy asarlarda qahramonlarning xarakterini, nutqining tabiiyligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ingliz va o'zbek tillarida uchraydigan bunday frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

1. Frazeologizmlarning lingvomadaniy o'ziga xosliklari

Frazeologizmlar tilda shakllanadigan metaforik va obrazli ifodalardir. Ular quyidagi lingvomadaniy omillar bilan bevosita bog'liq: Har bir xalqning madaniy tarixi

frazeologizmlar tarkibida aks etadi.

Masalan:

- Ingliz tilida: "**To spill the beans**" (sirni fosh qilish). Bu ibora qadimgi yunonlarning maxfiy ovoz berish uslubidan kelib chiqqan.
- O'zbek tilida: "**Og'zidan bol tomgan**" (shirinso'z, yoqimli gapiruvchi). Bu ibora o'zbek xalqining so'z san'atiga bo'lgan yuksak hurmatini aks ettiradi.

Frazeologizmlar milliy tafakkur va qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq, Ya;ni har bir xalq yillar davomida to 'plangan bilim tajriba, urf odatlari iboralarida yaqqol aks etgan bo'ladi:

Masalan: Inglizcha "**Break the ice**" – muzni sindirish, ya'ni suhbatni boshlash. Bu ibora shimoliy dengizchi xalqlarning sovuq ob-havoda muz qatlami ostidan yo'l ochish an'analariga asoslangan.

- O'zbekcha "**Tili zahar**" – zaharli til, ya'ni gaplari achchiq va keskin. Bu o'zbek tilidagi ijobiy va salbiy so'zlashuv ohanglarini aks ettiradi.

Shunisi xarakterlik, so'zlashuv nutqida informativlikdan ko'ra komunikativlik kuchli bo'ladi. So'zlashuv frazeologizmlari xalq og'zaki ijodida, kundalik muloqotda keng qo'llanilib, umuman uy-rozg'or buyumlari, kiyim-kechak nomlari, oziq –ovqat nomlari, pul birliklari, kundalik ish-harakatlarni, shuningdek insonning emotsional- ruhiy holatlarini ifodalab keladi. So'zlashuv frazeologizmlari oddiyligi, maishiy xarakterga egaligi, ba'zan satirik yoki hajviy uslubiy bo'yoqqa ega bo'lishi va yuqori darajadagi emotsionalligi bilan kitobiy frazeologizmlardan ajralib turadi.

Diniy va mifologik ta'sirlar butun dunyo tillarida ko'plab frazeologik birliklarning shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu birliklar ko'pincha muqaddas matnlar, marosimlar, e'tiqodlar va mifologik hikoyalarga tayanadi va axloqiy saboqlarni, madaniy qadriyatlarni va umumiylar hikoyalarni qamrab oladi. Quyida din va mifologiya FBlarning yaratilishiga qanday hissa qo'shishi turli madaniyatlardan misollar bilan o'rganiladi:

Masalan: "Break a bread" frazemasi o'zbek tilidagi "Bir mayizni qirqqa bo'lib yemoq" iborasiga to'g'ri kelib, o'zida bor narsa bilan bo'lishish,

mehmondo'stlik ma'nolarini anglatadi. Bu iborani qo'llanilish o'ziga xosligini talqin qiladigan bo'lsak, ingliz tilidagi misolimiz, nasroniyalar bayrami "Thanksgiving day" ya'ni minnatdorchilik bildirish kunida udum bo'lган nonni avval bo'laklab qo'yish odatidan kelib chiqqan holda paydo bo'lib xalq orasida tarqalgan bo'lsa, ozbek tilidagi yoki "bir mayizni qirqa bo'lib yeish" o'zbek mentalitetining qon qoniga singib ketgan mehmondo'stlikni ko'rsatib beradi.

Ingliz va o'zbek adabiyotlarida frazeologizmlarning ishlatalishi asarning milliy koloritini kuchaytiradi va qahramonlarning xarakterini ochib berishga xizmat qiladi. Nutqimizda oddiy "charchagan" bilan "hafsalasi pir bo'lган" degan so'zlarni ishlatalishi ikki xil vazifani bajarib nutqni umuman boshqacha qilib yuborishi mumkin ya'ni ikkinchi "hafkasasi pir bo'ldi" degan iboramizda hissiy bo'yoqdorlik mavjud bo'lib, bu birlikning uziga xos pragmatic vazifa bajarib kelgani hisoblanadi.

Masalan: Yusufning hafsalasi pir bo'lgandek, bir zum kalovlanib turdi-da, so'ng yana qor kechishda davom etdi. (Ulug'bek Hamdam, Muvozanat.)

Yoxud ingliz buyuk hikoyanavishlaridan **O. Genrining "Oxirgi barg"**

hikoyasidan:

"They import some pewter mugs and a chafing dish or two from Sixth Avenue, and sit around, and sew patches on the ragged ends of existence."

Bu yerda "sew patches on the ragged ends of existence" (yashashning yirtiq uchlariga yamoq tikish) frazeologik birligi ishlataligan bo'lib, bu hayotning qiyinchiliklarini yengishga urinishni tasvirlaydi.

Xulosa

Ingliz va o'zbek tillaridagi so'zlashuv frazeologizmlarining lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganish ularning xalq tafakkuriga bog'liqligini ochib beradi. Bunday iboralar badiiy asarlarda qahramon nutqini tabiiylashtirish, milliy madaniyatni aks ettirish va o'quvchini asar atmosferasiga singdirish uchun xizmat qiladi. Shu sababli, frazeologizmlarning tarjimasи va kontekstual tushunilishi tilshunoslik va adabiyotshunoslik tadqiqotlarida muhim o'rin tutadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бушуй А.М. Язык и действительность. – Ташкент: Фан, 2005. –144 с.
2. Кунин А. В. Англо-русский фразеологический словарь. – Изд.,Просвещения.,дрофа.– Москва 2007.
3. Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. – М.:Ленанд, 2019.-160с.
4. Backman G. Meaning by metaphor: An exploration of metaphor with a metaphoric reading of two short stories by Steven Crane. – Upsals: (Acta Universitatis Upsaliensis. Studia Anglistica Upsaliensia; 75), 1991.- 203 p.
5. Mukaramxodjayeva T.Y “Interactive methods of teaching language” Международный научный журнал № 8(100), часть 3 «Научный импульс» Март , 2023
6. Mukaramxodjayeva T.Y “Ingliz tilini o'qitishda o'yin texnologiyalarining ahamiyati va samaradorligi” International Journal of Education, Social Science and Humanities, volume 11, December,2023
7. Mukaramxodjayeva T.Y “Semantic relationships of phraseological units in English: polysemy and homonymy” So'z san'ati xalqaro jurnali, 7 jild 2 son, Toshkent, 2024
8. Mukaramxodjayeva T.Y “Advantages and disadvantages of learning foreign language at an early age” O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 20-SON, 2023
9. Mukaramxodjayeva T.Y., Sadullayeva G.I. “Ingliz tilida soz'lashuv frazeologizmlarining uslubiy semantic xususiyatlari” Eurasian journal of academic research ., Tom 2 ,N6 2022
10. Nasrullaeva, N. Z. (2015). Gender Conceptsin the semantics of phraseological units. In development of language system in the context of Accelerated dynamics of public relations (pp. 9-10)
11. Nasrullaeva, N. Z. (2018). English-Russian-Uzbek dictionary of genderly marked phraseological units. *Toshkent: Navruz.*